



So'zlarni o'qing. Har bir ustundagi so'zlardan foydalanib, so'z birikmasi tuzing va ma'nosini tushuntiring.

Ko'mak  
Yordam

Tez  
Chaqqon



## Tez yordam – yordamga shay

*Zuhra Ro'ziyeva*

Oqshom. Boburjonga oyisi yangi ertak aytib berarkan, uning qo'ng'iroq sochlarini silab-silab qo'yardi. Xonada oyisining mayin ovozi eshitilar, ertaklarning qiziqligidan hatto tunchiroq ham uni berilib tinglayotganga o'xshardi. Shu payt to'satdan allaqanday mashinaning baland signali eshitildi-yu, hammani cho'chitib yubordi.

- Oyijon, bu nimaning ovozi?
- Hozir, oppog'im... – oyisi o'rnidan turib, derazadan qaradi-yu, "Tinchlik bo'lzin-da", – deb qo'ydi.

Bu tez tibbiy yordam mashinasining signal ovozi edi. U bemorlarga tez tibbiy xizmat ko'rsatish uchun ketayotganida signal chalardi, atrofdagi mashinalar esa unga yo'l berishlari kerak bo'ladi. Kim bilsin, balki bu

mashina ichida hozir bemor qariya yoki kasal bola bordir.

- U mashinada yana kimlar bo'ladi? – Boburjonning savol xaltasi ochilib ketdi.
- Mashinada shifokor, uning yordamchisi va haydovchi bo'ladi. Agar ularga chaqiruv bo'lsa, darrov yetib borib, bemorlarga yordam ko'rsatishadi.
- Shifokorlardan juda ham qo'rqaman. Nimaga ularning xalatlari oq bo'ladi?
- Oq xalat tozalik va soflik belgisidir. Ular doimo oq ko'ngil va ochiq yuz bilan bemorlarni davolaydilar. Oq rang ishonch belgisi ham sanaladi.



- Agar kechki payt – tez tibbiy yordamdagilar uyiga ketib qolganda chaqiruv bo'lsa, nima bo'ladi?
- Tez tibbiy yordamda ishlaydiganlar kecha-yu kunduz tinim bilishmaydi. 24 soat mobaynida bemorlarga xizmat ko'rsatishadi. Shuning uchun ham tez tibbiy yordam deb ataladi. Zarurat tug'ilsa, ular bemorlarni shifoxonaga olib borishadi.
- Unda tez tibbiy yordamda ishlovchilar qachon dam olishadi?
- Ular navbatma-navbat dam olishadi. Axir, kunning istalgan vaqtida bemorlarning toblari bo'lmay qolsa, ularga yordam ko'rsatish kerak-ku.

Boburjon bu suhbatdan so'ng tez tibbiy yordamda ishlaydigan shifokorlarga ichida rahmat aytdi. U insonlarga yordam berish ishtiyoqi bilan yashash qanchalar maroqli ekanini his qildi.



**Bilasizmi, xuddi odamlarga o'xshab, avtomobilarning ham kasblari bor. Ularning ichida o't o'chiruvchi va sanitarlari ham, yuk tashuvchi va ko'cha supuruvchilari, harbiy va soqchi, jangchi va sportchilari ham bor. Ba'zilari ulkanligi va bahodirona kuchi bilan kishini hayratga soladi.**



1. Boburjonning onasi aytayotgan ertakni kimlar maroq bilan tingladi?
2. Ayting-chi, muallif Boburjonning “savol xaltasi ochildi”, deganda nimani nazarda tutdi?
3. Nima uchun shifokorlarni kerakli manzilga olib boradigan mashinalar tez tibbiy yordam mashinasi deb ataladi?
4. Insonlarga yordam beruvchi yana qanday maxsus transport turlarini bilasiz?
5. Hikoyani o'qiganingizdan so'ng sizda qanday hissiyot uyg'ondi?



Hikoyadan shifokorlar hamda tez tibbiy yordam haqida bildirilgan fikrni topib o'qing.  
Izohli lug'atdan berilgan so'zlarning ma'nosini topib o'qing: *ishtiyoq, maroqli, tob, mobaynida*.



Tez aytish.

**Shokir shifokorlarning shart-sharoitini shoshilmasdan sharhladi.**



Hikoyani o'qing.

Oila a'zolarингиз bilan birgalikda o'zingizga yoqqan transport turi haqida kichik hikoya tuzing.